

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.01.2025.P.190.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

AMINOVA GULNOZA NASRITDINOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA
KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK OMILLARI NAMOYON
ETILISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

UDK: 143:796.(077(575.1)

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertatsion abstract of doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Aminova Gulnoza Nasritdinovna

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlik
omillari namoyon etilishining pedagogik-psixologik determinantlari.....3

Aminova Gulnoza Nasritdinovna

Педагогико-психологические детерминанты проявления факторов
коммуникативной компетентности у воспитателей дошкольной
образовательной организации.....27

Aminova Gulnoza Nasritdinovna

Pedagogical and psychological determinants of the manifestation of factors of
communicative competence among educators of a preschool educational
organization.....53

E`lon qilingan ishlar ro`yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**BUXORO XALQARO UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.01.2025.P.190.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

AMINOVA GULNOZA NASRITDINOVNA

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARIDA
KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIK OMILLARI NAMOYON
ETILISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy talim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/P736 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro xalqaro universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bxu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Baratov Sharif Ramazanovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yakubova Go'zal Asatullayevna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ganjiyev Feruz Furqatovich
psixologiya fanlari doktori(DSc), professor

Yetakchi tashkilot:


Samarqand davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Buxoro xalqaro universiteti huzuridagi PhD.03/04.01.2025.P.190.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «17» oktabr soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 250-uy. Tel.: (+9955) 309-99-99; email: bxu@bxu.uz).


Dissertatsiya bilan Buxoro xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (2 raqam bilan ro'yxatga olingan.) (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, G'ijduvon ko'chasi, 250-uy. Tel.: (+9955) 309-99-99).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «4» oktabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «17» 10 dagi 2 - raqamli reyestr bayonnomasi).


E.M. Muxtorov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


Sh.Sh. Ostanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent.


D.A. Sobirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori
(DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda yuz berayotgan innovatsion ta'lim jarayoni shaxsiy va kasbiy faoliyat uchun zaruriy sifat va fazilatlarni egallagan, raqobatbardosh, yangicha fikrlaydigan, ijtimoiy faol maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlashni taqozo qilmoqda. AQShda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida, kommunikativ kompetentlikka ega bo'lgan tarbiyachilar bilan ishlagan bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi 30% ga yuqori bo'lganligi aniqlangan. Bu esa, tarbiyachilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Zero, bolaning dunyoqarashi, didi, salohiyati shakllanadigan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga har tomonlama yetuk, pedagogik–psixologik bilimlarni egallagan, tajribali murabbiylarni tayyorlash dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon ilmiy tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq psixologik kategoriyalarni belgilash, zamonaviy tarbiyachi modelini yaratish, pedagogik–psixologik faoliyatini ta'riflash me'yorlarini ishlab chiqish, faoliyat subyektining kasbiy tasavvuri va tafakkurini shakllantirish hamda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy kompetentligini ta'minlovchi omillarni rivojlantirish borasida ilmiy tadqiqot ishlari dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Ayni paytda, zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi shunday bilimga ega bo'lishi kerak. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030–yilgacha Xalqaro ta'lim kontsepsiyasida¹: «Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish» ustuvor vazifalardan biri qilib belgilanganligi hamda bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni samaradorligini oshirishda innovatsion usullarni qo'llash, ta'lim va tarbiyani integratsiyasini birga olib borish, har bir xodimni kasbiy kompetensiyasi bilan bog'liq psixologik omillarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlarda maktabgacha ta'lim tashkilotida mas'uliyatli, irodali, o'z kasbiga sadoqatli, fidoyi kadrlar faoliyatini takomillashtirish vazifasi qo'yilmoqda. Jumladan, «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari: bolalarga professional darajada ta'lim va tarbiya berishi; pedagogik etikaga rioya etishi, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularni zo'ravonlik ko'rinishlaridan himoya qilishi, ... o'z kasbiy ko'nikmalarini va pedagogik mahoratini takomillashtirishi shart»² ekanligi belgilanganligi ahamiyatlidir. Ana shu maqsadda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilari psixologik tayyorgarligi jarayoniga nisbatan munosabat tizimini o'zgartirish, muammoga yangicha yondashish, maktabgacha ta'lim tashkiloti kasbiy tayyorgarligining zamonaviy jihatlarini o'rganishni taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi

¹ <https://www.unesco.org/ru>

² <https://lex.uz/acts/-4646908>

to'g'risida»gi, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi» Farmonlari, 2017 yil 30 sentyabrdagi PQ-3305-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida», 2018 yil 5 apreldagi PQ-3651-son «Maktabgacha ta'lim tizimini yanada rag'batlantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-son «Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlaridan kommunikativ kompetentlik hamda uning pedagogik-psixologik xususiyatlari F.A.Akramova, A.Abduqodirov, D.M.Anvarova, Sh.R.Barotov, G.B.Davletshin, F.F.Ganjiyev, A.M.Jabborov, E.I.Ganeyeva, M.F.Dadaxodjayeva, G.Ermatova, V.M.Karimova, N.Sh.Mullaboyeva, M.S.Maqsadova, I.Safayeva, N.D.Qosimova, G.A.Qurbonova, G.Xalbayeva va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan Sh.A.Amonashvili, G.M.Andreyeva, Y.K.Babanskiy, I.V.Dubrovina, D.B.Elkonin, A.K.Markova, Z.A.Reshetova, S.L.Rubinshteyn, V.A.Slastenin, N.V.Samoukina va V.D.Shadrikov va boshqalar psixologik kompetentlikni faoliyat samaradorligini tashkil qiluvchi muhim omil sifatida talqin etganlar.

Xorij olimlaridan G.Y.Ayzenk, L.F.Baxman, V.A.Kan-Kalik, D.G.Mayers, G.U.Olport, J.F.Piaje, A.D.Palmer, K.R.Rodgers, A.A.Rean va E.F.Zeer va boshqalar maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kommunikativ kompetentligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236 «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyihasi doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

Tadqiqotning maqsadi maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlik omillari namoyon etilishining pedagogik-psixologik determinantlari o'rganish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida «tarbiyachi-tarbiyalanuvchi» munosabatlari asosida ekspressiv muloqotni rivojlantirishga xizmat qiluvchi kommunikativ kompetentlikni aniqlash;

maktabgacha ta'limda tarbiyachilarning «Men» konsepsiyasi komponentlari asosida kommunikativ kompetentlikni rivojlantiruvchi zamonaviy interfaol usullarni aniqlash va baholash;

tarbiyachilarda intervensiya, supervayzerlik, refleksivlik va altruistik xususiyatlar transformatsiyasi orqali pedagogik-psixologik omillarini aniqlash;

tarbiyachilarda destruktiv va konstruktiv boshqarish indikatorlari bog'liqligi asosida ijobiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlik omillari namoyon etilishining pedagogik-psixologik determinantlari tanlangan bo'lib, tadqiqotga Buxoro viloyatidan 50 nafar, Qashqadaryo viloyatidan 40 nafar hamda Navoiy viloyatidan 30 nafar, jami, 120 nafar tarbiyachilar jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlik omillari namoyon etilishining pedagogik-psixologik determinantlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, anketa hamda V.Smekal va M.Kuchera tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxs yo'nalganligini aniqlash» metodikasi, Mixelsonning «Kommunikativ kompetentlikni baholash testi» K.N.Tomasning «Nizoli vaziyatlarda xulq-atvorni baholash» so'rovnoma hamda «Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlikni aniqlovchi so'rovnoma» va matematik-statistik metodlaridan (faktorli tahlili, Styudentning t-mezoni, K.Pirsonning r-korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash) dan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining shaxs yo'nalganligini kommunikativ kompetentlik namoyon bo'lishiga ta'siri o'z subyektiv dunyosi va bolalarning ichki olamiga qiziqishini kuchliligi «tarbiyachi – ota-ona», «tarbiyachi – tarbiyalanuvchi» munosabatlarida suhbatdoshning qarashlarini qabul qilish va tinglash qobiliyatini empatiyaga bog'liq rivojlanishi natijasida egotsentrik qarashlarning altruistik pozitsiyaga pertseptiv ko'nikmalar asosida o'zgarishi dalillangan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kommunikativ kompetentligini namoyon bo'lishi muloqotdagi yon bosuvchanlik, loqaydlik, agressivlik kabi psixologik to'siqlarni professional faoliyatda affiliyatsiya motivlarini rivojlantirish asosida bartaraf etish muhimligiga ko'ra muloqotning motivatsion-qadriyatlilik, kognitiv, xulq-atvor omillariga «boshqalarni» adekvat idrok qilish xususiyati orqali bog'liqligi dalillangan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlikni namoyon bo'lishi shaxslararo munosabatlarda axborot almashinish, noverbal ta'sirlarni qo'llash ko'nikmasi bilan bog'liq gneoseologik, muloqot madaniyati va suhbatdoshni hurmat qilish bilan bog'liq aksiologik qarashlardagi differentsiatsiya tufayli affiliyatsiya motivlarining ijtimoiy kutuvlarga muvofiq ekstriorizatsiyasiga bog'liq ekanligi isbotlangan;

maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kommunikativ

kompetentligini rivojlantirish modeli shaxsning ijtimoiy vaziyatga yo‘nalg‘anligi, bolalar va ularning ota-onalarini tushunishi, verbal hamda noverbal ta’sir usullarini to‘g‘ri qo‘llashini real faoliyatda namoyon bo‘lishi muhimligi sababli, psixokorreksion faoliyatga muloqotdagi kauzal atributsiyaning regulativ qadriyatlarga bog‘liq intentsiv va dispozitsion darajasini kiritish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari uchun kommunikativ kompetentlik omillarini rivojlantirish dasturi yaratilgan;

maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga mo‘ljallangan amaliy tavsiyalar taqdim etilgan;

kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga doir treninglar majmui ishlab chiqilgan va maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilari faoliyatida tatbiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo‘yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma’lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko‘rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «SPSS 22.0» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kommunikativ kompetentligini tadqiq qilish modeli yaratilganligi, mazkur muammoni ilmiy jihatdan ochib berish va bakalavr hamda magistraturada tahsil olayotgan maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini tayyorlashga doir oliy ta’limning malaka talablarini ishlab chiqishda, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha dasturlar yaratishda, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lishining nazariy asosi yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining faoliyat samaradorligiga ta’sir etuvchi kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha tayyorlangan samarali trening dasturini qo‘llash imkoniyati bilan belgilanib, tadqiqot ishi natijalaridan bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarini o‘qitishda hamda «Umumiy psixologiya», «Yosh davrlari–psixologiyasi» «Kasbiy psixologiya», «Psixologik xizmat», «Shaxs psixologiyasi» kabi fanlarni ilmiy manbalar bilan boyitishga hamda ilmiy asoslarini takomillashuviga shuningdek, psixologiya tarmoqlari bilan o‘zaro aloqadorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlik omillarini rivojlantirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining shaxs yo‘nalg‘anligini kommunikativ kompetentlik namoyon bo‘lishiga ta’siri o‘z subyektiv dunyosi va

bolalarning ichki olamiga qiziqishini kuchliligi «tarbiyachi – ota-ona», «tarbiyachi – tarbiyalanuvchi» munosabatlarida suhbatdoshning qarashlarini qabul qilish va tinglash qobiliyatini empatiyaga bog‘liq rivojlanishi natijasida egotsentrik qarashlarning altruistik pozitsiyaga pertseptiv ko‘nikmalar asosida o‘zgarishi dalillanganligiga oid ma’lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-287-son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-287a-son ma’lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kommunikativ kompetentligiga ta’sir etuvchi pedagogik–psixologik omillarni aniqlash imkoniyati yaratilgan;

maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kommunikativ kompetentligini namoyon bo‘lishi muloqotdagi yon bosuvchanlik, loqaydlik, agressivlik kabi psixologik to‘siqlarni professional faoliyatda affiliyatsiya motivlarini rivojlantirish asosida bartaraf etish muhimligiga ko‘ra muloqotning motivatsion-qadriyatlilik, kognitiv, xulq-atvor omillariga «boshqalarni» adekvat idrok qilish xususiyati orqali bog‘liqligi dalillanganligiga oid ma’lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-287 son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-287a-son ma’lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilar faoliyatida psixologik-pedagogik kompetentlik komponentlar rivojlanishiga erishilgan;

maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlikni namoyon bo‘lishi shaxslararo munosabatlarda axborot almashinish, noverbal ta’sirlarni qo‘llash ko‘nikmasi bilan bog‘liq gneoseologik, muloqot madaniyati va suhbatdoshni hurmat qilish bilan bog‘liq aksiologik qarashlardagi differentsiatsiya tufayli affiliyatsiya motivlarining ijtimoiy kutuvlarga muvofiq ekstriorizatsiyasiga bog‘liq ekanligi isbotlanganligiga oid ma’lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM- 287son buyrug‘i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy Markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-287a-son ma’lumotnomasi). Natijada maktabgacha ta’lim tashkilotida faoliyat yurituvchi tarbiyachilardagi kommunikativ kompetentlik omillari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish imkoniyati yaratilgan;

maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli shaxsning ijtimoiy vaziyatga yo‘nalg‘anligi, bolalar va ularning ota-onalarini tushunishi, verbal hamda noverbal ta’sir usullarini to‘g‘ri qo‘llashini real faoliyatda namoyon bo‘lishi muhimligi sababli, psixokorreksion faoliyatga muloqotdagi kauzal atributsiyaning regulyativ qadriyatlarga bog‘liq intentsiv va dispozitsion darajasini kiritish asosida takomillashtirilganligiga oid ma’lumotlar Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy

pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-dekabrda PM-287son buyrug'i bilan «Psixokorreksiya» moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2024-yil 10-dekabrda PM-287a-son ma'lumotnomasi). Natijada tarbiyachilarda kommunikativ kompetentlik omillarini rivojlantirishga mo'ljallangan pedagogik-psixologik trening dasturi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, shuningdek, obyekt va predmeti aniqlangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarini rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi yoritilgan, e'lon qilingan ishlar, ishning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlik omillari namoyon etilishining ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlik muammolarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarning nazariy tahlili amalga oshirilgan.

Mamlakatimiz olimlaridan A.T.Nurmanov, N.A.Muslimov, A.R.Xodjaboyev, F.Arziyev, V.Karimova, P.S.Ergashev, F.A.Akramova, E.I.Ganeyeva, N.Sh.Mullaboyeva, G.A.Qurbonova, N.A.G'ayibova, N.T.Norqulova, M.F.Dadaxodjayeva va boshqalar kommunikativ kompetentlikning ilmiy asoslari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan A.K.Markova, N.Kuzmina, Y.A. Klimov, N.V.Samoukina, S.L.Rubinshteyn, V.M.Myasishchev, V.A.Slastenin, V.P.Kashirin va boshqalar shaxslararo munosabatlarning kasbiy faoliyatdagi o'rni borasida tadqiqotlar olib borishgan.

Olib borilgan ilmiy-nazariy tahlillar, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlik muammosi, o'zining

nazariy-metodologik bazasiga ega ekanligini ko'rsatsa-da, aynan mavzu doirasidagi tadqiqotlarning yetarli emasligi va dolzarbligini isbotladi.

Dissertatsiyaning «**Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlik omillari namoyon bo'lishining dinamik xususiyatlari**» deb nomlangan ikkinchi bob o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi o'z aksini topgan.

Dastlab, tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan «Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlikni aniqlovchi so'rovnoma» bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz.

1-jadval

«Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlikni aniqlovchi so'rovnoma» bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=120)

Shkalalar nomi	O'rtacha(M)		Farqlar
	besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n ₁ =70	besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n ₂ =50	t
Muloqotchanlik	4,6	6,8	-2,7*
Empatiya	4,9	6,5	-2,4*
Moslashuvchanlik	5,2	7,1	-2,6*

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01, ***-p<0,001

«Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlikni aniqlovchi so'rovnoma» bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, «muloqotchanlik» (t=-2,7; p<0,05), «empatiya» (t=-2,4; p<0,05) hamda «moslashuvchanlik» (t=-2,6; p<0,05) omillari bo'yicha ahamiyatli tafovutlar qayd etildi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining «muloqotchanlik» qobiliyati, ayniqsa besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lganlar orasida yuqori ko'rsatkichlar bilan namoyon bo'lgani, ularning pedagogik jarayonda ochiq va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirganidan dalolat beradi (t=-2,7; p<0,05). Ushbu qobiliyat, shubhasiz, ularga bolalar, ota-onalar va hamkasblar bilan doimiy aloqada bo'lish imkonini beradi, bu esa tashkilot ichidagi psixologik muhitni ijobiy tomonga o'zgartirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, muloqotchan tarbiyachilar bolalarning ehtiyojlarini o'z vaqtida anglab, ularga mos yondashuvlarni qo'llash orqali tarbiyaviy jarayonning samaradorligini oshiradilar. Shu bilan birga, ular ota-onalarning talab va istaklarini diqqat bilan tinglash orqali pedagogik jarayonni oila bilan hamkorlikda olib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa bolalarning har

tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Tajribasiz tarbiyachilarda esa muloqotchanlik qobiliyatining yetarlicha rivojlanmaganligi sababli, ba'zan pedagogik vaziyatlarda noqulayliklar yuzaga kelishi mumkin, ammo bunday holatlarni bartaraf etish uchun trening va maslahatlarni qo'llash mumkin. Tajribali tarbiyachilarning muloqotchanligi ularga murakkab vaziyatlarda mo'tadil va diplomatik yondashuvni qo'llash imkonini berib, nizolarni hal qilishda samarali usullarni topishga yordam beradi. Shuningdek, bu xususiyat ularni muloqotda ochiq-oydinlik va ishonchni saqlashga undaydi, bu esa ota-onalar va hamkasblar o'rtasida ular uchun ijobiy obro' ortishiga olib keladi. Muloqotchanlikning rivojlanganligi, pedagoglarga pedagogik jarayonni kreativ usullar bilan boyitish va bolalarning qiziqishini oshirish uchun yangi vositalarni qo'llashga imkon beradi. Shu tariqa, «muloqotchanlik» omili yuqori bo'lgan tarbiyachilar tashkilot ichida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi.

«Empatiya» qobiliyatining besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan tarbiyachilar orasida yuqori namoyon bo'lishi, ularning bolalar va ota-onalarning hissiy holatini chuqur anglash va ularga mos yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyatiga ega ekanliklarini ko'rsatadi ($t=-2,4$; $p<0,05$). Ushbu pedagoglar bolalarning his-tuyg'ulariga sezgirlik bilan qarab, ularga ijobiy hissiy muhit yaratishda muhim rol o'ynaydilar, bu esa ularning pedagogik jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Empatiyaning rivojlanganligi tarbiyachilarga ota-onalarning ehtiyojlarini ham chuqur anglash va ularga mos pedagogik maslahatlar berish imkonini beradi, bu esa tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu sifat tarbiyachilarni jamoaviy faoliyatda samarali hamkorlik qilishga undaydi, chunki ular hamkasblarining hissiy ehtiyojlarini ham hisobga olgan holda, ish jarayonini uyg'unlashtirishga intiladilar. Tajribasiz tarbiyachilarda esa empatiya qobiliyatining rivojlanishi sekinroq bo'lishi mumkin, ammo bu qobiliyatni trening va psixologik maslahatlar orqali rivojlantirishga imkoniyat mavjud. Empatiyaning yuqori darajasi tarbiyachilarni nizoli vaziyatlarda ochiq va samimiy muloqotni tashkil qilishga undab, ular o'rtasidagi kelishmovchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Shuningdek, empatiya qobiliyatining rivojlanganligi, pedagoglarga bolalarning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ularga mos tarbiyaviy yondashuvlarni ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa pedagogik jarayonning sifatini oshiradi. Ushbu sifatning rivojlanganligi ota-onalar bilan pedagogik hamkorlikni mustahkamlashga yordam berib, bolalar tarbiyasiga oila va tashkilotning uyg'un ta'sirini ta'minlaydi. Empatiyaning yuqori darajasi pedagoglarni o'z hamkasblari bilan ham ijobiy va ochiq muloqot qilishga undaydi, bu esa tashkilot ichidagi jamoaviy muhitni ijobiy tomonga o'zgartiradi.

«Moslashuvchanlik» qobiliyatining besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan tarbiyachilar orasida yuqori darajada rivojlanganligi, ularning pedagogik jarayonda yuzaga keladigan har qanday o'zgarishlarga tezda moslashish qobiliyatiga ega ekanliklaridan dalolat beradi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Ushbu pedagoglar, odatda, bolalar va ota-onalarning ehtiyojlariga qarab o'z faoliyat usullarini o'zgartirishga

intilishadi, bu esa ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga xizmat qiladi. Moslashuvchanlikning rivojlanganligi ularga murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va ularga mos strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi, bu esa ularning kasbiy samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, tajribasiz tarbiyachilarda ushbu qobiliyatning past darajada ekanligi, ularga murakkab vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilishda qiyinchilik tug'dirishi mumkin, ammo bunday muammolarni trening va tajriba orqali bartaraf etish mumkin. Moslashuvchanlik qobiliyatining rivojlanganligi, pedagoglarga bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, ularga mos ta'lim metodlarini qo'llash imkonini beradi, bu esa bolalarning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, ushbu sifat ularga tashkilot ichida yangi pedagogik texnologiyalarni tezda qabul qilish va amaliyotga joriy etishda yordam beradi, bu esa ta'lim jarayonining innovatsionligini oshiradi. Moslashuvchanlikning yuqori darajasi tarbiyachilarga ota-onalar va hamkasblar bilan muloqotda ham samaradorlikni oshiradi, chunki ular har bir insonning ehtiyojlariga moslashib, ular bilan samarali hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu qobiliyat pedagoglarni jamoaviy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil qilishga undaydi, chunki ular har bir vaziyatda o'z pozitsiyasini o'zgartirishga tayyor bo'ladilar, bu esa tashkilot ichidagi barqarorlikni ta'minlaydi.

Tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida «Shaxs yo'nalganligini aniqlash» metodikasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlilini amalga oshirdik.

2-jadval

«Shaxs yo'nalganligini aniqlash» metodikasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=120)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)		Farqlar
	besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n ₁ =70	besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n ₂ =50	t
O'ziga yo'nalganlik	6,9	8,6	-2,4*
Odamlarga yo'nalganlik	6,5	8,3	-2,7*
Faoliyatga yo'nalganlik	7,6	9,4	-2,9*

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01, ***-p<0,001

«Shaxs yo'nalganligini aniqlash» metodikasi bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, «o'ziga yo'nalganlik» (t=-2,4; p<0,05), «odamlarga yo'nalganlik» (t=-2,7; p<0,05) hamda «faoliyatga yo'nalganlik» (t=-2,9; p<0,05) omillari bo'yicha ahamiyatli tafovutlar qayd etildi.

Besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida «o'ziga yo'nalganlik» omili bo'yicha yuqori natijalar qayd etildi

($t=-2,4$; $p<0,05$). Tarbiyachilarning o'ziga yo'nalganlik xususiyati, ularning shaxsiy rivojlanishga e'tibor qaratish tendensiyasini kuchaytirib, o'z kasbiy kompetensiyalarini doimiy ravishda mustahkamlashiga olib keladi, bu esa tarbiyachiik jarayonda yuqori natijalarga erishishni ta'minlaydi. Shuning natijasida, ular o'z ish faoliyatida yuzaga keladigan muammolarni chuqur tahlil qilib, ularni hal etish uchun innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga muvaffaq bo'ladi, bu esa ular uchun tajribaga asoslangan ijobiy natijalarni beradi. Ayniqsa, ular kasbiy faoliyatlarini tanqidiy qayta ko'rib chiqib, o'z kamchiliklarini bartaraf etish bo'yicha rejalar tuzishga moyil bo'lganligi sababli, rivojlanish jarayonida individual yondashuvni qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, o'ziga yo'nalganlikka ega bo'lgan tarbiyachilar, ichki motivatsiyaga tayangan holda, bolalarning ehtiyojlarini yanada chuqurroq anglash va bu ehtiyojlarni qondirish usullarini izlashga intilishadi, bu ularning professional mas'uliyat tuyg'usini oshiradi. Ushbu omilning tarbiyachiik faoliyatga ta'siri shundaki, tarbiyachilar o'z bilimlarini muntazam ravishda yangilab, ular orqali tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish imkoniga ega bo'ladi, bu esa ularning shaxsiy qoniqish darajasini ham oshiradi. Ayniqsa, o'zini rivojlantirishga e'tibor qaratish natijasida, ular bolalar bilan muloqotda noan'anaviy yondashuvlardan foydalana boshlaydi, bu esa muloqot jarayonida qo'shimcha ishonch muhitini yaratadi. O'ziga yo'nalganlikning yuqori darajasi, shuningdek, tarbiyachilarni o'z faoliyatlarida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga undaydi, bu esa nafaqat bolalar bilan ishlash sifatini, balki hamkasblar bilan hamkorlikdagi jarayonlarni ham ijobiy tomonga o'zgartiradi. Shu tariqa, tarbiyachilarning o'ziga yo'nalganlik qobiliyati ularni faoliyatni professional darajada tashkil etishga undab, muloqot jarayonining tarbiyachiik-psixologik determinantlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi.

Besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida «odamlarga yo'nalganlik» omili bo'yicha yuqori natijalar kuzatildi. ($t=-2,7$; $p<0,05$). Odamlarga yo'nalganlik darajasi yuqori bo'lgan tarbiyachilar bolalar va ota-onalar bilan muloqotda samimiylik va ochiqlikni ta'minlashga intilishadi, bu esa ularga mustahkam ishonch muhitini yaratishda yordam beradi. Ushbu ishonch muhitining mavjudligi nafaqat tarbiyachilarning kasbiy samaradorligini oshiradi, balki ular tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayonlarga ota-onalarni faol jalb qilish imkonini ham beradi, bu esa natijada tarbiyalanuvchilar rivojlanishining yaxlit strategiyasini shakllantiradi. Aynan odamlar bilan ishlash qobiliyati tarbiyachilarga bolalar o'rtasidagi nizolarni aniqlash va ularni muvaffaqiyatli hal qilishda yordam beradi, shu orqali bolalar muloqotida qulay psixologik muhit shakllanadi. Shu bilan birga, odamlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanganligi sababli, tarbiyachilar o'z hamkasblari bilan ham jamoaviy faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil qila olishadi, bu esa tashkilotning umumiy natijadorligiga ijobiy ta'sir qiladi. Shuningdek, bu omil ularning faoliyatida o'zaro munosabatlarning tahliliy ko'nikmalarini rivojlantirishga olib keladi, bu orqali ular har bir tarbiyaviy vaziyatda optimal yondashuvni tanlay oladi. Odamlarga yo'nalganlik omili yuqori bo'lgan tarbiyachilar, odatda, bolalar va ota-onalarning individual ehtiyojlarini tezda aniqlash va ularga mos yondashuvlarni ishlab

chiqishda yuqori darajada samarali bo'lishadi, bu esa tarbiyaviy jarayonni sifat jihatidan boyitadi. Ushbu omilning namoyon bo'lishi natijasida, ular jamoada boshqalarning fikrlarini hurmat qilish va ularni qo'llab-quvvatlashni o'z faoliyatining asosiy qismi sifatida qabul qilishadi, bu esa jamoaviy muloqotda ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, odamlar bilan ishlashga yo'nalgan tarbiyachilar ota-onalar bilan tarbiyachiik hamkorlikni tashkil etishda aniq maqsadlarni qo'yib, ular bilan samarali aloqalar o'rnatish orqali kasbiy yutuqlarga erishadilar. Odamlarga yo'nalganlik omili tarbiyachilarning bolalarning hissiy ehtiyojlarini chuqur anglash qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa ularning ijtimoiy-psixologik rivojlanishiga xizmat qiladi.

Besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida «faoliyatga yo'nalganlik» omili bo'yicha yuqori natijalar qayd etildi ($t=-2,9; p<0,05$). Faoliyatga yo'nalganlikning yuqori darajasi tarbiyachilarga har bir vazifani o'z vaqtida va sifatli bajarishni odatga aylantirish imkonini beradi, bu esa ularning tarbiyachiik faoliyatida samaradorlikni ta'minlaydi. Ushbu xususiyat ularga har bir tarbiyaviy vazifani maqsadli rejalashtirish va uni aniq bajarish orqali o'z kasbiy ko'nikmalarini yanada takomillashtirishga imkon yaratadi. Faoliyatga yo'nalgan tarbiyachilar har bir ish jarayonida samaradorlikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanishga intilishadi, bu esa ularning tarbiyachiik faoliyatiga yangicha ruh bag'ishlaydi. Shu bilan birga, ular bolalarning rivojlanish jarayonini kuzatib borib, har bir bolaning shaxsiy ehtiyojlariga mos bo'lgan yondashuvlarni ishlab chiqishga e'tibor qaratadilar, bu esa bolalarning individual qobiliyatlarini rivojlantirishga zamin yaratadi. Faoliyatga yo'nalganlik omilining namoyon bo'lishi natijasida, tarbiyachilar o'z kasbiy mas'uliyatlarini bajarishda har bir detallarga e'tibor qaratishadi, bu esa tashkilotning umumiy ish faoliyatiga ijobiy ta'sir qiladi. Ular faoliyatni rejalashtirish jarayonida nafaqat bolalarning, balki ota-onalarning ham ishtirokini ta'minlashga harakat qilishadi, bu esa ota-onalarning tarbiyachiik jarayonga qiziqishini oshiradi. Ushbu omil ularni har bir faoliyatni o'z vaqtida tahlil qilish va natijalarga muvofiq qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega qiladi, bu esa tashkilotda yuqori darajadagi barqarorlikni saqlab turishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, faoliyatga yo'nalganlik ularga tarbiyaviy jarayonlarni doimiy ravishda takomillashtirish va innovatsiyalarni joriy etish orqali bolalarning tarbiyaviy ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish imkonini beradi. Ushbu omilning mavjudligi sababli, ular har bir tarbiyachiik jarayonni analitik yondashuv bilan baholash va undan yangi tarbiyachiik usullarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Tadqiqotimiz maqsad va vazifasidan kelib chiqib, «Mexelsonning kommunikativ kompetentlikni baholash testi» orqali ham dastlabki natijalar qo'lga kiritildi.

3-jadval

«Mexelsonning kommunikativ kompetentlikni baholash testi» bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=120)

Shkalalar nomi	O'rtacha (M)	Farqlar
----------------	--------------	---------

	besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n₁=70	besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lganlar n₂=50	t
Yon bosuvchanlik	22,9	24,8	-2,5*
Layoqatlilik	21,4	23,9	-2,7*
Agressivlik	24,2	21,6	-2,6*

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01, ***-p<0,001

«Mexelsonning kommunikativ kompetentlikni baholash testi» bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga ko'ra, «yon bosuvchanlik» (t=-2,5; p<0,05), «layoqatlilik» (t=-2,7; p<0,05) hamda «agressivlik» (t=-2,6; p<0,05) omillari bo'yicha ahamiyatli farqlar aniqlandi.

Metodikaning dastlabki «yon bosuvchanlik» besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida yuqori natijalar qayd etildi (t=-2,5; p<0,05). Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining «yon bosuvchanlik» xususiyati, ayniqsa besh yildan ortiq ish tajribasiga ega bo'lgan tarbiyachilarda yuqori ko'rsatkichlar bilan namoyon bo'ldi, bu esa ularda muammoli vaziyatlarda murosaga kelish qobiliyatining shakllanganidan dalolat beradi. Ular murosaga yo'naltirilgan yondashuv orqali jamoa ichida nizolarni kamaytirishga muvaffaq bo'lishadi, bu esa psixologik muhitning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Aynan bu xususiyat, tajribali tarbiyachilarning bolalar bilan ishlashda shaxsiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda, bolalarning hissiy barqarorligiga erishishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, bunday tarbiyachilar ota-onalar bilan muloqotda ham moslashuvchan bo'lib, o'zaro tushunmovchiliklarni bartaraf etish uchun turli yondashuvlarni qo'llaydilar. Besh yildan kam tajribaga ega bo'lgan tarbiyachilarda esa ushbu sifat unchalik kuchli rivojlanmagan bo'lib, bu holat ularning ba'zan ziddiyatli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Yon bosuvchanlikning yuqori darajasi, ayniqsa, tajribali tarbiyachilar tomonidan o'qitish jarayonida individual yondashuvni amalga oshirishda sezilarli ahamiyat kasb etadi, bu esa tarbiyaviy jarayonning muvaffaqiyatiga hissa qo'shadi. Shuningdek, ular muvofiqlikni saqlash orqali, jamoa ichidagi ijobiy munosabatlarni shakllantiradilar, bu esa tashkilotning umumiy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Besh yillik tajriba chegarasida bo'lgan tarbiyachilar esa, odatda, o'z qarashlarini qat'iy himoya qilishga moyil bo'lib, ba'zan nizolarga olib kelishi mumkin, bu esa ularning ish muhitidagi barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu xususiyatning yuqori darajada rivojlanishi tarbiyachilarni zamonaviy tarbiyachiik jarayonlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishga undaydi, bu esa ularning kasbiy kompetentlik ko'rsatkichlarini oshirishga zamin yaratadi. Shu sababli, «yon bosuvchanlik» omilining rivojlanishi tajriba ortib borishi bilan mustahkamlanishi ma'lum darajada muhim tarbiyachiik determinant sifatida namoyon bo'ladi.

Navbatdagi «layoqatlilik» besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida ijobiy natijalar kuzatildi ($t=-2,7$; $p<0,05$). Besh yildan ortiq mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida «layoqatlilik» omili bo'yicha yuqori natijalar kuzatilgani, ularning professional faoliyatdagi mas'uliyat darajasining sezilarli darajada mustahkam ekanligidan dalolat beradi. Ushbu tarbiyachilar murakkab vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatini rivojlantirib, tashkilotning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu omilning yuqori darajada rivojlanganligi ularga ota-onalar bilan ishlashda moslashuvchanlikni ta'minlash, bolalar uchun esa tarbiyaviy faoliyatni aniq va samarali tashkil qilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, layoqatlilik darajasi past bo'lgan, ya'ni besh yildan kam tajribaga ega bo'lgan tarbiyachilar, odatda, o'z faoliyatida qat'iylik va aniq rejalashtirish ko'nikmasini rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch keladilar, bu esa ularning ish faoliyatida ba'zan murakkabliklarga olib keladi. Ushbu sifatning yuqori darajasi, tajribali tarbiyachilarga tarbiyaviy jarayonlarda mustahkam reja va maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradi, bu esa tashkilotning umumiy samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, layoqatlilikning yuqori bo'lishi, tarbiyachilarni bolalar ehtiyojlarini aniq tahlil qilish va ularga mos yondashuvlarni ishlab chiqishda muvaffaqiyatli qiladi, bu esa tarbiyaviy jarayonni yanada sifatli amalga oshirishga imkon beradi. Shuningdek, bunday tarbiyachilar bolalar va ota-onalar bilan ishlashda mustahkam ishonch va hurmat muhitini shakllantiradi, bu esa ular uchun ijobiy obro' ortishiga zamin yaratadi. Bu omilning rivojlanishi tajribali tarbiyachilarga yangi tarbiyachiik texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy qilishda yordam beradi, shu bilan birga ularning professional darajadagi ishonchini mustahkamlaydi. Shu sababli, layoqatlilik omili tajribaga bog'liq holda shakllanadigan tarbiyachiik determinant sifatida faoliyatga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Metodikaning so'nggi «agressivlik» besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida salbiy natijalar aniqlandi ($t=-2,6$; $p<0,05$). Besh yilgacha mehnat tajribasiga ega bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida «agressivlik» omili bo'yicha salbiy natijalar qayd etilgan bo'lib, bu ular tomonidan muloqot jarayonlarida yetarlicha sabr va muvofiqlik ko'rsatila olmasligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ushbu salbiy xususiyat, odatda, jamoa ichida nizolarning ko'payishiga olib kelishi, shu bilan birga tarbiyaviy jarayonga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, uning oldini olish muhim ahamiyat kasb etadi. Agressivlik darajasi yuqori bo'lgan tarbiyachilar ota-onalar va bolalar bilan ishlashda yetarli darajada hamdardlik ko'rsata olmaydilar, bu esa o'z navbatida ularning ish jarayonidagi muvofiqlikni buzishi mumkin. Ayniqsa, tajribasiz tarbiyachilar murakkab vaziyatlarda o'z hissiyotlarini nazorat qila olmay, bu orqali tarbiyachiik jarayonda ziddiyatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishlari ehtimoli yuqori. Tajribali tarbiyachilarda esa ushbu omilning pastligi, ularning muloqot jarayonlarida ijobiy va moslashuvchan yondashuvni qo'llashlariga yordam beradi, bu esa tashkilot ichida tinchlik va barqarorlikni saqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, aggressivlik darajasi past bo'lgan tarbiyachilar, odatda, muammolarni

hal qilishda faol tinglash va tushunish qobiliyatiga ega bo'lganliklari sababli, jamoada o'z o'rnini mustahkamlaydilar. Ushbu sifatning past bo'lishi ularga bolalarning hissiy holatini chuqurroq anglash va ularning ehtiyojlariga sezgirlik bilan javob berish imkonini beradi, bu esa tarbiyachiik jarayonda muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Besh yildan kam tajribaga ega bo'lgan tarbiyachilar uchun agressivlikni kamaytirishga qaratilgan treninglar va psixokorreksion dasturlarni joriy qilish, ularning kasbiy rivojlanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Shu tariqa, agressivlik omilining darajasi tarbiyachining tajribasiga bog'liq holda o'zgarib boradi va bu tarbiyachiik jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

4-jadval

«Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlikni baholash»so'rovnomasi hamda «Shaxs yo'nalganligini aniqlash» metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=120)

Omillar	Muloqotchanlik	Empatiya	Moslashuvchanlik
O'ziga yo'nalganlik	0,14	0,12	0,39*
Odamlarga yo'nalganlik	0,13	0,35*	0,17
Faoliyatga yo'nalganlik	0,34*	0,18	0,13

«Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarida kommunikativ kompetentlikni baholash» so'rovnomasi hamda «Shaxs yo'nalganligini aniqlash» metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga ko'ra, «muloqotchanlik» omili «faoliyatga yo'nalganlik» ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) omili bilan, «empatiya» omili «odamlarga yo'nalganlik» ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) omili bilan, «moslashuvchanlik» omili «o'ziga yo'nalganlik» ($r=0,39$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy aloqadorlik aniqlandi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining «muloqotchanlik» omili ularning «faoliyatga yo'nalganlik» darajasi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan bo'lib, bu ularning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishidagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu bog'liqlik shuni ko'rsatadiki, «muloqotchanlik» darajasi yuqori bo'lgan tarbiyachilar, odatda, o'z ish jarayonida aniq maqsadlarga yo'naltirilgan va samarali usullarni qo'llashga intilishadi. Ayniqsa, bolalar bilan ishlashda ular muhim pedagogik jarayonlarni intuitiv ravishda tushunib, faoliyatni rejali va izchil tashkil qilish orqali yuqori natijalarga erishadilar. Shu bilan birga, «muloqotchanlik» qobiliyatining rivojlanganligi, ularni har bir pedagogik vazifani chuqur tahlil qilish va unga mos strategiyalarni ishlab chiqishga undaydi, bu esa «faoliyatga yo'nalganlik» darajasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ushbu ikki omil o'rtasidagi ijobiy bog'liqlik tarbiyachilarning muloqot jarayonida mustaqil va tashabbuskor bo'lishiga imkon yaratadi, bu esa ularning faoliyat samaradorligini oshiradi. «Faoliyatga yo'nalganlik» darajasi yuqori bo'lgan pedagoglar bolalar bilan ishlashda ularning ehtiyojlarini yaxshiroq anglab, moslashuvchan va ijodiy yondashuvlarni qo'llash orqali muloqot sifatini yaxshilaydilar. Shuningdek, «muloqotchanlik» va «faoliyatga yo'nalganlik»ning

o‘zaro aloqadorligi, tarbiyachilarning jamoaviy ishda o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu omillar pedagoglarni bolalar va ota-onalar bilan aloqalarni yaxshilashga, muammoli vaziyatlarda esa muloqot jarayonida ijobiy yechimlar topishga undaydi. Ushbu xususiyatlarning uyg‘unligi natijasida, tarbiyachilar nafaqat o‘z faoliyatlarini muvaffaqiyatli tashkil qilishadi, balki guruh ichidagi ijtimoiy munosabatlarni ham samarali boshqarish imkoniga ega bo‘ladilar.

